



O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Uralova Odina Orifjanovna,

Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universiteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243867>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqollar hamda ularning lingvistik tadqiqi, xususan, maqollarni o‘rgangan olimlar va ularning maqollar ustida olib borgan izlanishlari, asarlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: paremiologiya, qiyosiy tilshunoslik, maqol, chog‘ishtirma tahlil, tipologiya, semantika.

O‘zbek xalq maqollari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va sermazmun janrlaridan biridir. Maqollarning tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman” degan edi. Shunday ekan, maqollar xalq turmush tarzida yaratilgan. Ularning matni mazmun jihatidan tahlil qilinmaydi, chunki maqollar to‘g‘riligi isbotlangan holda qayta-qayta ishlanib vujudga kelgan. Maqol so‘ziga izoh bersak, maqol so‘zi arabcha “qavlun” so‘zidan olingan bo‘lib, “gapirmoq” degan ma‘noni angalatadi. Dastlab ajdodlarmiz maqollarni “sav” deb atashgan. Alisher Navoiy asarlarida ham maqol emas masal tarzida uchraydi. Maqol so‘zi esa o‘tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab qo‘llanila boshladi. O‘zbek maqollari qadimgi yozma yodgorliklarda ham uchraydi. Masalan, “Avesto”da o‘xshash hikmatli iboralar mavjud. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham maqollardan unumli foydalanilgan. Bu asar xalqimizning bizgacha saqlanib qolgan eng qadimiy maqollari jamlangan mukammal yodgorlikdir. Ularning soni esa uch yuzga yaqin ekani Mahmud Qoshg‘ariyning naqadar xalq og‘zaki ijodini ham xo‘p bilganini bildiradi.

Maqollar ko‘proq folklorning o‘rganish obyekti sifatida qaralgan va tadqiq etilgan. O‘tgan asrning oxirlaridan boshlab esa tilshunoslikning tadqiq obyektiga aylana boshladi. N.Uluqov “Tilshunoslik nazariyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida shunday deydi: “Paremiologiya tilshunoslikning bo‘limlaridan biri bo‘lib, tildagi barqaror birikmalar – maqol, matal va aforizmlar [hikmatli so‘zlar]ni o‘rganadi”. [Uluqov, 192]

Bugungi kunda maqollar yuzasidan tilshunoslikda qizg‘in izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maqollarni qiyosiy tilshunoslikda chuqur o‘rganish orqali tilshunoslikning yangi qirralari ochilmoqda. Mavzuning eng muhim dolzab jihatlaridan biri shundaki, bir tomondan xorijiy tillarga qiziqishning o‘sishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan maqollarning lingvistik tahlili amalga oshirilmoqda.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



O‘zbek xalq maqollarini to‘plash, nashrga tayyorlash, tadqiq etishda avval Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G‘ozi Olim Yunusov, G‘ulom Zafariy, keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Husainova, G‘ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov To‘ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Asqar Musaqulov, R.Zarifov kabi olimlar munosib hissa qo‘shdilar. [Madayev, 34] Ularning asarlari o‘zbek xalq maqollarini turli lingvistik jihatlarida o‘rganishga bog‘ishlangan bo‘lib, tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda X.Abdurahmonov, Y.Pinxasov, Sh.Rahmatullayev G‘.Salomov, Q.Samadov, M.To‘ychiyev, Sh.Shorahmedov, M.Sadriddinova kabi tilshunoslar hamda shogirdlarining tadqiqotlarini alohida ta’kidlash joiz. [Yuldasheva, 7] Tilshunos olimlardan Nida ham bir xalqning tilini o‘rganishda uning madaniyatini ham o‘rganish joiz ekanligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tgan. Uning ta’kidlashicha til va madaniyat bir-biriga bog‘liq ravishda rivojlangan o‘xshash sistemadir. U buni quyidagicha izohlaydi: “Cultural factors are deeply interwoven with the language, and thus are morphologically and structurally reflected in the forms of the language [Madaniy omillar til bilan chuqur chambarchas bog‘langan va shuning uchun til shakllarida morfologik va tarkibiy jihatdan o‘z aksini topadi]”. [Mirzaahmedov, 47]

V.Teliya tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bog‘liqligida paremiologiya sohasini rolini alohida ta’kidlab o‘tadi. Uning aytishicha, til butun bir madaniyatni o‘zida ifodalar ekan, shubxasiz paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo‘lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi. Bunday holatni o‘zaro til va madaniyatning qorishib ketgan sohasi ya’ni lingvokulturologiya asoslay oladi. [Mirzaahmedov, 46]

1967-yili Leypsigda nashr etilgan venger olimi X.Vamberi o‘zining “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya-lug‘atiga 112 ta maqol kiritgan bo‘lib, ularning nemis tiliga tarjimasini ham berib o‘tgan. Shundan so‘ng tarjimashunoslik yo‘nalishidagi to‘plamlar ham yuzaga kela boshladi. Masalan, Y.Chernyavskiy, V.Ro‘zimetov [1959], N.Gatsunayev [1983, 1988], A.Naumov [1985], kabi tarjimonlarning mehnati bilan o‘zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to‘plamlar sifatida bosilib chiqdi. [Murodova, 66]

O‘zbek xalq maqollari yuzasidan olib borilgan tilshunoslarning ishlarini ikki guruhga ajratamiz:

1. O‘zbek tilshunosligida paremiologiyaga oid tadqiqotlar:
2. O‘zbek tilshunosligida paremiologiya yuzasidan amalga oshirilgan qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqotlar.

O‘zbek tilshunosligida paremiologiyaga oid tadqiqotlar.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Dastlab, 1985-yilda M.Sadriddinovaning ishida o‘zbek maqol va matallarining lug‘aviy xususiyatlari tadqiq etilib, maqol va matallar leksikasi, bir tomondan, o‘zbek adabiy tili leksikasi bilan, ikkinchi tomondan esa lahja va shevalar leksikasi bilan qiyosiy o‘rganilgan. [Sadriddinova, 18]

Shundan so‘ng tilshunoslik fanining rivojlanishi, tadqiqotda til imkoniyatlarining nutqiy o‘ziga xosligi masalalarini chuqur o‘rganish, shuningdek, o‘zbek tili metodologiyasining alohida lingvistik yo‘nalish sifatida shakllanishi natijasida xalq maqollarining uslubiy o‘ziga xosligi, shuningdek, o‘zbek tilidagi o‘zbek maqollaridagi individual va yaqin matallarning funksional imkoniyatlari va xususiyatlariga oid maxsus tadqiqotlar boshlandi. [Turdaliyeva, 75]

Bu sohada S.Mirzayev, [Abdurahmonov, 48] S.Asqarov, [Abdullayev, 122]

A.Jo‘raxonov, [Asqarov, 22] M.To‘ychiyev, [Jo‘raxonov, 55] M.Hakimov [To‘ychiyev, 77] va boshqa tilshunos olimlarning asarlari o‘zbek xalq maqollari haqidagi tadqiqotlar xazinasiga salmoqli hissa bo‘lib xizmat qildi.

Paremiologiyaga qiziqish 2000-yillardan keyin yanada avj oldi. Xususan, Bibish Jo‘rayeva o‘zining “Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma‘naviy-uslubiy qo‘llanishi” [Jo‘rayeva, 52] nomli nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek xalq maqollari atroflicha tadqiq etgan. Unda maqol va matallarning ko‘p ma‘noligi, sinonimligi, variantlilik, uslubiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Bundan tashqari uning “O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari” [Jo‘rayeva, 75] mavzusidagi filologiya fanlari doktori [DSc] ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida maqol va idioma, maqol va metal, maqol va ibora munosabati, ularning integratsiyalashuv va differensiyalashuv holatlari aniqlangan. Shuningdek, D.A.Tosheva filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan “Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari” [Tosheva, 32] mavzusidagi dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari, ularning milliy-mental belgilari boshqa qardosh va noqardosh tillar bilan qiyoslangan holda ochib berilgan bo‘lsa, G.Komilova “O‘zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili” [Komilova, 50] mavzusidagi doktorlik [PhD] ishida aksiologik mazmun ifodalovchi vositalarning lisoniy funksiyalarini tekshirilgan. Bu davrda hatto “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida keltirilgan maqollarning sintaktik qurilishi, lingvopoetik xususiyatlari, qadimgi xalqlarning turmush tarzi, madaniy hayoti aks ettirilgan muhim manba ekanligini ko‘rsatib bergan I.M.Mirzaaliyevning “Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi [“Devonu lug‘oti-t-turk” material misolida]” [Mirzaaliyev, 112] mavzusidagi ishi ham juda ahamiyatli.



Bundan tashqari kichik maqoqlalar ham mavzuning keng qirrali ekanligidan dalolat beradi. Mazkur maqolalarda o‘zbek xalq maqollarning semantik jihatlari yoritiladi. Dilnavoz Abdurahimova “O‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik tahlili” [1:147] maqolasida maqollarning tasvir vositalari, ko‘chim turlari, badiiy san’atlar, tasvir vositalari va usullarining xalq maqollari poetikasidagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Sh.Tashxo‘jayeve esa “Xalq maqol va matallarining lingvopoetik tadqiqi” [Tashxo‘jayeve, 68] maqolasida Erkin A‘zam ijodida qo‘llangan maqol va matallarning lingvopoetik xususiyatlari haqida so‘z yuritadi. M.Mirzaahmedov “Maqollarda kontseptlar ifodalashining lingvokulturologik tahlili” [Mirzaahmedov, 97] maqolasida ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlarini har ikkala tilda qiyosiy o‘rganish va ularda birinchi bor “Oila” va “Vaqt” kontseptlarining ifodalanishini yoritib bergan. Ko‘rinib turganidek o‘zbek tilshunosligida o‘zbek maqollarining keng ko‘lamli lingvistik tadqiqi turli yondashuvlarda amalga oshirilgan bo‘lib, ularning har biri tilshunosligimiz ravnaqiga, millat ruhini o‘zida tashuvchi maqollarning ilmiy asosini yaratishga ulkan hissa qo‘shadi. Ularning qardosh yoki turli tizimdagi tillar bilan qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili uchun mukammal baza yaratib beradi va bu bazadan bugungi kunda muvaffaqiyatli foydalanilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida paremiologiya yuzasidan amalga oshirilgan qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqalar. Til har qanday milliy madaniyatning muhim qismi ekan, unda milliy madaniyat milliy tilning turli birliklarida namoyon bo‘lishi tabiiy. Maqollar boy madaniy mazmunni o‘z ichiga olib, ular nafaqat millatning ishlab chiqarish tajribasi va turmush darajasini, balki millatning psixologiyasi, qadriyatlari va fikrlarining xulosasini, shuningdek, millatning tarixiy shaxslari, voqealari, afsonalari va urfodatlarini ham o‘zida jamlaydi. Maqollar turli milliy tillardagi zamon va makon, mintaqa, tabiiy muhit, madaniy an‘analar va til foydalanuvchilarining bilvosita tajribasi va dunyoni anglash xususiyatlarini ham ifoda qiladi. [Da Zhenxin, 66] Shu ma’noda, bugungi kunda, xalqlardagi millat xarakteri aks etgan maqollarni qiyoslash, chog‘ishtirish olimlarning qiziqishini uyg‘otmoqda. O‘zbek maqollarining qiyosiy hamda chog‘ishtirma tadqiqalarini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin.

- 1] Turkiy tillararo qiyoslash
- 2] Turli tizimdagi tillararo chog‘ishtirish.

Birinchi turga ko‘p sonli izlanishlar qatorida M.Temirovaning “O‘zbek va qirg‘iz xalq maqollari tipologiyasi” [Temirova, 166] nomli dissertatsiyasini kiritish mumkin. Unda o‘zbek va qirg‘iz xalq maqollarining qiyosiy tahlili olib borilgan. Tadqiqotda o‘zbek va qirg‘iz xalq maqollarining yaratilish tarixi, geografik muhit o‘rni, maqollarning struktural, poetik tipologiyasi masalalari yoritilgan. Tadqiqotlar



maydoni ham turkiy, ham turli tizimdagi tillarda mavjud maqollarni qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqatlari uchun ham keng imkon yaratib beradi. Bunga misol qilib, P.Bakirovning ishini keltirishimiz mumkin. P.Bakirovning tadqiqotida nominasentrik [ega va kesim bosh kelishikdagi ot va harakat nomi bilan ifodalangan maqollar, bu atama ilk bor professor P.Bakirovning tadqiqotida qo‘llangan] maqollarning semantik va struktur xususiyatlari rus, o‘zbek va qozoq tili materiallari asosida batafsil izohlanadi. [Bakirov, 286]

Maqollarning qarindosh tillar bilan muqoyasa qilinishi qiyoslanayotgan tillarning tarixiy ildizlarini kashf etishda katta ahamiyatga ega. Bu borada axborot almashinuvi natijasida taraqqiyotning bobo til urug‘lariga bo‘lgan ta’siri namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi turga esa G.Ergashevaning “Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi”ga [Ergasheva, 164] bag‘ishlangan, ingliz va o‘zbek tillarida gender ko‘rsatkichli frazeologik birliklar tahlil qilingan dissertatsiyasi, O.Uralovning “Ingliz va o‘zbek tillarida “oila” bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi” [Uralova, 144] mavzusidagi ishi, R.Madjidovanning *yaxshi* va *yomon* kategoriyalarni shakllantiradigan o‘zbek va rus tillaridagi antroposentrik maqollarning baholash markerlari aniqlangan “Antroposentrik maqollarning aksiologik tadqiqi [o‘zbek va rus tillari materiallari asosida]” [Madjidova, 88] nomli doktorlik dissertatsiyasi kiradi.

Aytish joizki, ingliz tili bilan bog‘liq chog‘ishtirma tahlillar o‘zbek tilshunosligida ancha taraqqiy etgan. Xususan, Z.R.Narmuratovning “Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’lim”, “ilm” konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi” [Narmuratov, 51] nomli dissertatsiyasida ingliz va o‘zbek tillaridagi ta’lim, ilm konseptli paremiologik birliklarni chog‘ishtirib o‘rgangan va ularni lisoniy-madaniy jihatdan o‘xshash va umumiy tomonlari tadqiq etilgan.

Yosh tilshunoslar ham maqollarning lingvopoetik tahlili, maqol va matallarning lingvopoetik tadqiqi kabi mavzularda maqolalar yozib tadqiqotlar olib bormoqdalar. Masalan, U. Axmedovanning magistrlik ishi shular jumlasidan. U “Ingliz va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari” [Axmedova, 19] nomli dissertatsiyasida ilk bor ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik va semantik jihatlari tematik guruhlariga bo‘lingan holda chuqur qiyosiy tahlil etilgan, uncha ko‘p murojaat etilmagan diniy mavzudagi maqollarning qiyosi tahlil etilgan. Chog‘ishtirma tahlillar yosh tadqiqotchilarga ham qiziqish uyg‘otib, magistrlik ishi larini ham shu mavzuga bag‘ishlangani, masalaning naqadar zamonaviy va keng qamrovli ekanligidan, doimo yangi hamda turli qirralarga egaligidan dalolat beradi.



Maqollarning qiyosiy-chog‘ishtirma sapektida leksik-grammatik jihati turlicha bo‘lgani bilan, semantikasi o‘xshash bo‘lishi tabiiy. Zero, hamma tillarda ham maqollar insonni tarbiyaga chaqirgani, inson tafakkurining to‘g‘ri shakillanishiga qaratilgani bilan ahamiyatli. Ana shunday madaniyati o‘zbek millatiga yaqin bo‘lgan tillardan biri xitoy tili hisoblanadi. Bu borada ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Da Zhenxin “O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi” [3:93] nomli dissertatsiyasida bu ikki tildagi maqollarning leksik-grammatik maqomini aniqlash mezonlari ularning tuzilishi, semantikasi, obrazlilik, didaktikligi kabi o‘zaro farqlovchi xususiyatlar tarkibini aniqlashtirilgan. Ikkala tildagi maqollarning fonetik xususiyatlari aniqlangan, xitoy maqollarida tuzulishiga ko‘ra murakkabroq jumlar ko‘p ishlatilishi, tuzilishi murakkab bo‘lsa-da, uyg‘un intonatsiyaga egaligi, o‘zbek maqollarida ham sodda gaplardan ko‘ra qo‘shma gaplar ko‘p uchrashi aniqlangan.

Xullas, o‘zbek maqollarining turli xil yondashuv asosidagi tadqiqi masalasi bugungi kungacha qanchalik samarali bo‘lmasin, tilshunoslikning turli – grammatik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik, lingvokulturologik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, pragmalingvistik, kross-lingvistik kabi sohalari qamrovining kengligi sababli shunchalik ularning yangi-yangi yondashuvlarda o‘rganilish imkonini ochib beradi. Zero, o‘zbek maqollari xalqning boy madaniy merosi bo‘lib, ularni tilshunoslik sohasida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalq maqollari lingvistik jihatdan murakkab va boy tuzulishga egaligi, ularni tadqiq etish, lingvistik xususiyatlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahimova D. O‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik tahlili. // Scientific Journal Impact Factor, Vol 4 Issue 2, 2023. 190-194 b. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalq-maqollarining-lingvopoetik-tahlili/viewer>
2. Yuldasheva O. O‘zbek xalq maqollarining tilshunoslikda o‘rganilishi // Ejar. 2024. №7S. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalq-maqollarining-tilshunoslikda-o-rganilishi>.
3. Da Zhenxin. O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori [PhD] dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 50 b.
4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2010.
5. Məmmədov, X., & Kadirova X. X[iks]-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri. *O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti*, I[01], 39–44. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/95>
6. Məmmədov, X., & Kadirova, X. Bahar mətivli azərbaycan, türk və özbək atalar sözlərinin müqayisəli tipologiyasi // Dede Gorgud, 2024, №3, 53–60. URL: <https://dergipark.anas.az/index.php/dg/article/view/1760>
7. Мамедов Х, Кадирова Х. Сравнительная типология азербайджанских, турецких и узбекских пословиц с мотивом весны // Деде Горгуд: № 3 (2024). – С. 53-60. <https://dergipark.anas.az/index.php/dg/article/view/1760>